

NO‘XAT O‘SIMLIGI BO‘YICHA OLIB BORILGAN ILMIY IZLANISHLAR

Z.B.Alloberganova., G.U.Rustamova., G.O.Yaxshimuradova.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda no‘xat o‘simligi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar yoritilgan bo‘lib, no‘xatning ekish muddatlari, seleksion ishlarga jalb qilinganligi, zamburug‘li kasalliklari borasida olib borilgan ilmiy ishlarning tahlillari keltirilgan.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются научные исследования, проводимые на растениях гороха в Узбекистане, дается анализ научных работ, проводимых по срокам посадки гороха, участию в селекционной работе и грибковым заболеваниям.

Abstract. This article covers scientific research conducted on pea plants in Uzbekistan, and provides an analysis of scientific work conducted on pea planting dates, involvement in breeding work, and fungal diseases.

Kalit so‘zlar: No‘xat, otquloq, organik mahsulot, kalsiy, fosfor, poliz ekinlari, donli ekinlar, o‘tmishdosh, olma kislota, briket.

Ключевые слова: Горох, щавель, органические продукты, кальций, фосфор, бахчевые культуры, зерновые, предшественник, яблочная кислота, брикеты.

Key words: Peas, sorrel, organic products, calcium, phosphorus, melon crops, cereals, precursor, malic acid, briquettes.

No‘xat qadimdan, 4000 yildan ortiq yetishtirilib kelinadi. Asosan qurg‘oqchil o‘lkalarda yetishtiriladi. I. V. Seferova (1993) ma‘lumotlariga ko‘ra, madaniy no‘xatning yurti G‘arbiy Osiyo hisoblanadi. Hozirda ushbu yurtlarda no‘xatning bir yillik yovvoyi turlari ham uchray turadi [4]. Dunyo bo‘yicha no‘xat yetishtiriladigan maydonlarning 90 % i Osiyo davlatlariga to‘g‘ri keladi [5]. Boziyev A.L. va boshqalarning fikricha (2016) no‘xat o‘simligi goroxga nisbatan qurg‘oqchilikka chidamlirak bo‘lib, deyarli yotib qolmaydi. Ushbu ekinni to‘g‘ridan to‘g‘ri kombayn bilan yig‘ib olish mumkin.



Respublikamizning lalmi yerlarida no'xatning kuzgi va bahorgi mavsumda ekish bo'yicha e'tiborga sazovor bo'lgan dastlabki ilmiy ishlar 1963 yilda P.P. Oleynik tomonidan o'tkazilgan. Muallifning tadqiqot natijalari bo'yicha no'xat qish oldi ekilsa urug'i 2-5°C da ko'karib chiqib -11°C gacha bo'lgan sovuqqa chidamli ekanligi, bahorda ekilganga nisbatan 7 - 10 kun oldin pishib yetilishi isbotlangan [3].

1968 - 1969 yillarda P.Shukurullayevning olib borgan ilmiy izlanishlarida no'xat kuzda ekilganda ildizida tuganak bakteriyalarning yaxshi rivojlanishi hosilni oshirgan, tuproqni biologik azotga boyitishi aniqlangan. No'xat ildizida hosil bo'lgan tuganaklar qanchalik ko'p va katta bo'lsa, tuproq tarkibida biologik azot shuncha ko'p to'plangan. No'xat o'simligi ildizidagi tuganak bakteriyalar gullashgacha yaxshi rivojlanib biologik azot ko'p to'plashi, azot tuganaklarning shakllanishiga sarflanib uning bir qismi organik azot sifatida tuproqda qolishi isbotlangan. Lalmi sharoitda ham no'xatning ildizi 2 metr chuqurga kirib borishi va yon ildizlari kam bo'lishi sababli namlikning kam sarflashini aniqlagan [6].

No'xatning 1200 ta nav va namunalari tabiiy va infeksiyon fon sharoitida Hindiston, Turkiya, Eron, Turkiston, Janubiy Yevropa, Efiopiyaning turli ekologik-geografik guruhlariga bo'lib o'rganilgan. Tadqiqot natidjalariga ko'ra, bu guruhlar orasidan yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli bo'lgan 909, 368 (Chexoslovakiya), 111 (Germaniya), 119, 1179 (Krasnodar), 925, 978 (Fransiya), 982 (Ukraina) nav namunalari tanlab olingan va seleksion ishlarga jalb qilingan [1].

No'xat o'simligi ma'danli o'g'itlar bilan N_{40} P_{40} K_{30} kg/ga me'yorda oziqlantirilganda ildizidagi tuganak bakteriyalarni ko'payganligini qayd etilgan, ammo azot me'yoridan oshirilganda tuganak bakteriyalarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [2].

Dukkakli o'simliklarning azot to'plashini havo harorati bilan bog'liq. Harorat 16-18°C bo'lganda ildizdagi tuganak bakteriyalarning biologik azot to'plashi yaxshi bo'lib, harorat 32°C va undan oshganidan so'ng havodagi erkin azotni o'zlashtirilishi qiyinlashadi [7].

Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sug'oriladigan sharoitda no'xat tuproqda biologik azotni ko'payib, tuproq ekologik holati yaxshilanishini qayd etilgan.

Z. Umarov va Z. Yuldoshevalar (1999) no'xatni sug'oriladigan yerlarga qish oldi ekib mo'l va sifatli hosil yetishtirish mumkin ekanligini isbotlashgan. No'xat qish oldi

ekilganda ertaroq unib chiqib, dukkaklarni ko'p hosil qilgan va doni to'liqligi hisobiga hosildorlik ko'rsatkichlari ham oshgan [9].

No'xat o'simligi hosildorligi pasayishiga turli zamburug'li kasalliklar ham sabab bo'ladi. Askoxitoz-keng tarqalgan zamburug' kasalligi bo'lib, bahor salqin, sernam bo'lgan yillari ko'proq rivojlanadi. Askoxitozni rivojlanishi uchun qulay bo'lgan yillarda hosildorlik pasayishi yoki umuman hosil olib bo'lmaslik holatlari kuzatilishi mumkin. Askoxitoz bilan o'simlikning bargi, poyasi, dukkaklari va urug'lari zararlanadi. [8].

No'xatning turli nav va liniyalarini askaxitoz kasalligiga chidamliligini o'rganilgan. No'xatning Chexiya, Krasnodar o'lkasi, Moldaviya, Azarbayjon va Volgogradan keltirilgan navlari askaxitoz kasalligiga chidamli ekanligi, Yulduz navining kasallikka chidamsizligi A.A. Amanov, V.A. Kiryash va K.T. Isakovlarning ilmiy izlanishlarida (1990) aniqlangan [1].

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ahmad M., Zahir Z. A., Khalid M., Nazli F., Arshad M. Efficacy of Rhizobium and Pseudomonas strains to improve physiology, ionic balance and quality of mung bean under salt-affected conditions on farmer's fields. Plant Physiology and Biochemistry, 2013. - vol. 63, - P. 170-176.
2. Vishnyakova M.A. Dukkaklilar - kam baholangan yem -xashak manbai // Rossiyaning don va noni, 11 -xalqaro konferensiya - 2006.- B. 114. Azimbekov N., Valiyev R., Yormatova D. No'xat, mosh va loviya yetishtirishga oid tavsiyalar. Samarqand, 1991. 12 b.
3. Горпинченко Т. Чечевица перспективная культура // Хлебопродукты. -2006. - № 4. - S. 58
4. Сеферова И.В. Эколого-географическая дифференциация нута //Научн.-техн. бюл. ВНИИ растениеводства, 1993, № 230, с. 34-35
5. Столяров О.В., Федоров В. А., Демченко Н.И: Нут. Воронеж: Изд. ВГУ, 2004, - 256 с.
6. Коротких А. А. Органическое сельское хозяйство // Россия и Америка в ХХИ веке. 2020. - Выпуск № 4. //русус.жес.су/c207054760013404-1-1
7. Miller P.R., Holmes J.A. Cropping sequence effects of four broadleaved crops on four cereal crops in the Northern Great Plains. Agronomy Journal, 2005, 97: 189-200).



8. Matkarimov F.I. Baboyev S.K. va boshqalar. No'xat o'simligini yetishtirish texnologiyasi (amaliy tavsiyanoma). Toshkent-2020. 11-B.
9. Хамдамов И. Х., Шукуруллаев П., Мустанов С., Савкина Л. В. Влияние водного режима на урожай нута // Тезисы докладов на первом съезде физиологов растений Узбекистана. 1991. - С.44.